

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

IRISBEKOV ULUG‘BEK ASKARBEKOVICH

**TOVLAMACHILIK JINOYATLARINING OLDINI OLISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.15. – Kriminologiya.

12.00.08. – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Irisbekov Ulug‘bek Askarbekovich

Tovlamachilik jinoyatlarining oldini olishni takomillashtirish.....3

Ирисбеков Улугбек Аскарбекович

Совершенствование предупреждения преступлений, связанных с
ВЫМОГАТЕЛЬСТВОМ 23

Irisbekov Ulugbek Askarbekovich

Improvement prevention extortion..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

IRISBEKOV ULUG‘BEK ASKARBEKOVICH

**TOVLAMACHILIK JINOYATLARINING OLDINI OLISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.15. – Kriminologiya.

12.00.08. – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Yu382 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://akadmvd.uz>) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Ismailov Isamiddin

yuridik fanlar doktori, professor

Saitqulov Qodirali Abdisalimovich

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kabulov Rustam

yuridik fanlar doktori, professor

Otajonov Abror Anvarovich

yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 4-aprel soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akad.mvd.uz).

Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-171 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20-martda tarqatildi.

2025-yil 20-martdagi 5-raqamli reestr bayonnomasi.

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

Sh.A. Qulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda insonlarga zoʻrlik ishlatish, ularning mulkiga shikast yetkazish yoki nobud qilish yoxud sir saqlanishi lozim boʻlgan maʼlumotlarni oshkor qilish bilan qoʻrqitib, jabrlanuvchini oʻz mulki yoki mulkka boʻlgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qoʻyish bilan bogʻliq tovlamachilik hollari koʻpayib, ularning yangi usullari paydo boʻlganligi kuzatilmoqda. 2019-yilda yangi taktika yaʼni “tovlamachi-dastur” asosida sodir etilgan jinoyatlar “tovlamachilik 2.0” deb nomlanib, 2021-yil yanvar-noyabr oylarida jabrlanganlar soni 1500 taga yetib, 2020-yilga nisbatan 30 foizga oshgan¹. Xalqaro ekspertlarning maʼlumotlariga koʻra, birgina 2021-yilning birinchi olti oyida dunyoda 304 milliondan ortiq tovlamachilik kompyuter texnologiyalaridan foydalanib sodir etilganligi² mazkur jinoyatlarning oldini olish tizimini takomillashtirish zarurati yuqori ekanligini koʻrsatmoqda. Juniper Research tadqiqotchilarining fikriga koʻra, kelgusida kiber jinoyatchilar xavfsizlik tizimlarini mustaqil ravishda oʻrgana oladigan sunʼiy intellektdan foydalanishni boshlaydilar. 2024-yilga kelib, kiber jinoyatlardan moliyaviy yoʻqotishlar deyarli 70 foizga yetib, zarar har yili oʻrtacha 11 foizga oshishini va 5 trillion dollardan oshib ketishini tahmin qilishgan. 2018-yili mutaxassislar kiber jinoyatlardan yetkazilgan zararni 3 trillion dollarga baholashgan³.

Jahonda tovlamachilik jinoyatlarining barvaqt oldini olish hamda undan jabrlanish ehtimoli yuqori boʻlgan shaxslarni bu kabi tajovuzlardan himoya qilishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga, uni tashkil etishning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga alohida eʼtibor berilmoqda. Bu borada, ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan kengroq foydalanishni yoʻlga qoʻyish orqali aholi oʻrtasida oʻzini oʻzi tovlamachilikdan himoya qilish usul va shakllarini keng targʻib qilishga yoʻnaltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi Oʻzbekistonda tovlamachilikning oldini olish, uni aniqlash, fosh etish hamda javobgarlikning muqarrarligini taʼminlash, shuningdek, qonunchilik tizimini tubdan isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Jamoat xavfsizligini taʼminlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab boʻlgan shart-sharoitlarni oʻz vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish maqsadida “Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish”⁴, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida “Milliy axborot maydonida **qonunchilikka rioya etilishini taʼminlash, axborotdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, ... milliy internet makonida kiberxavfsizlikni taʼminlash...**”⁵ dolzarb

¹ История года: программы-вымогатели в заголовках СМИ // Elektron manba: <https://securelist.ru/the-story-of-the-year-ransomware-in-the-headlines/104130/> (murojaat vaqti: 30.12.2024).

² Число кибератак с целью вымогательства выросло в мире в 2,5 раза // Elektron manba: <https://www.dv.ee/novosti/2021/08-19/chislo-kibernapadenij-s-celju-vymogatelstva-vyroslo-v-mire-v-25-raza> (murojaat vaqti: 30.12.2024).

³ 2024-yilga kelib, kiber jinoyatchiliklardan moliyaviy zarar 5 trillionni tashkil etadi // Elektron manba: <https://csec.uz/uz/news/axborot-xavfsizligi-yangiliklari/2024-yilga-kelib-kiber-jinoyatchiliklardan-moliyaviy-zarar-5-trillionni-tashkil-etadi/> (murojaat vaqti: 30.12.2024).

⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son farmoni // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5841063> (murojaat vaqti: 30.12.2024).

⁵ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-son farmoni // Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/6600413> (murojaat vaqti: 30.12.2024).

vazifalar qilib belgilangan. Shu bois tovlamachilikning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, sohaga zamonaviy mexanizmlarni, ilg'or ish usul va shakllarini joriy etish, mazkur yo'nalishda hamkorlikning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2014), "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi (2016), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021), "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022), "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi (2023), "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022) farmonlari, "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2018), "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2021) qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlari M.A.Abdug'aniyev, Z.S.Zaripov, Y.M.Kareketov, M.Usmonaliyevlar tovlamachilikning kriminologik, M.A.Abduhalikov, M.X.Rustambayev, R.Kabulov, A.A.Otajonov, D.Y.Payziyevlar jinoyat-huquqiy, I.Ismailov, J.S.Muxtorov oldini olishning tashkiliy-huquqiy, Q.R.Abdurasulova, A.G.Zokirova ayollar jinoyatchiligiga oid, A.K.Rasulev axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasida, M.Z.Ziyodullayev, S.B.Xo'jaqulov, Q.A.Saitqulov, M.J.Eshnazarovlar esa profilaktikasiga oid umumiy jihatlari yuzasidan ilmiy mushohada yuritganlar.

Xorijiy olimlar G.N.Borzenkov, V.A.Vladimirov, L.D.Gauxman, G.L.Kruger, V.N.Kus, B.C.Minskaya, S.M.Kochoi, Y.I.Lyapunov, O.V.Koryagina, N.A.Skorilkinalar tomonidan tovlamachilikning boshqa jinoyatlardan farqli jihatlari yuzasidan tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa, R.Z.Abdulgaziyev S.D.Belotserkovskiy, A.A.Bogomolov, N.S.Vinokurova, O.V.Dmitriyev, R.A.Jarikov, V.V.Irincheev, V.N.Safonov, M.I.Tretyak, A.P.Filchenko, V.V.Sherbinalar esa mazkur jinoyatning jinoyat-huquqiy, kriminologik jihatlari hamda ularning oldini olishni dissertatsiya tadqiqoti doirasida o'rgananganlar.

Tadqiqotchi M.A.Utenov tomonidan yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan "Теория и практика уголовно-правового и криминологического обеспечения борьбы с вымогательством" nomli (2010), I.O'Ergashev tomonidan esa "Tovlamachilik uchun jinoiy javobgarlikni takomillashtirish" nomli (2024)⁶ dissertatsiyalar himoya qilingan.

⁶ Bu va boshqa mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Biroq mazkur dissertatsiya ishlarida bugungi kunda sodir etilayotgan tovlamachilikning obyektiv va subyektiv belgilaridagi o'zgarishlar, kriminologik xususiyatlari, ularning axloqqa qarshi huquqbuzarliklar bilan bog'liq holda va kibermakonda sodir etilayotganlariga xos jihatlari yoritilmagan hamda ularning oldini olishni takomillashtirishning nazariy, huquqiy va amaliy jihatlariga oid kompleks tadqiqot o'tkazilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining 2020–2023-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish" ilmiy-tadqiqot ishining ustuvor yo'nalishi doirasida tayyorlangan.

Tadqiqotning maqsadi tovlamachilikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq etish hamda uning oldini olish choralari takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan xulosa, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy qonunchilikdagi tovlamachilikka oid normalarni o'rganish va qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligidagi tovlamachilik uchun javobgarlik belgilangan normalarni o'rganish va qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

tovlamachilikning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini ilmiy tahlil qilish, uning bugungi kundagi o'ziga xos kriminologik xususiyatlarini aniqlash hamda ilmiy xulosalarni shakllantirish;

tovlamachilikni sodir etgan shaxslarning kriminologik va undan jabrlanganlarning viktimologik xususiyatlarini aniqlash, ilmiy tahlil qilish hamda xulosalarni asoslantirish;

xorijiy davlatlarning tovlamachilikka oid jinoyat qonunchiligi normalarini va uning oldini olishga oid ilg'or tajribalarini tahlil qilish hamda natijalarini huquq ijodkorligi sohasiga, shuningdek, amaliyotga joriy etish yuzasidan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish;

tovlamachilikning oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni ilmiy asoslantirish.

Tadqiqotning obyekti tovlamachilikning sodir etilishini taqozo etuvchi omillar va ularning oldini olish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini tovlamachiliklar va ularning oldini olishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo'llash amaliyoti, mazkur yo'nalishdagi ilg'or xorijiy tajribalar, shuningdek, yuridik fandagi mavzu bo'yicha konseptual yondashuvlar hamda ilmiy-nazariy qarashlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada mavzuga oid masalalarni o'rganishda analiz, sintez, deduksiya, induksiya, mantiqiylik, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so'rovlari, jinoyat ishlari va statistik ma'lumotlar tahlili kabi tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtirish, milliy qadriyatlarga zid bo'lgan ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, hududlar bo'yicha oilalarda sog'lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota-onalarga tarbiya usullarini o'rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ'ibot tadbirlari hamda treninglar o'tkazilishi tovlamachilikning barvaqt oldini olishga xizmat qilishi asoslantirilgan;

shaxsga doir ma'lumotlar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilganlik (ularni g'ayriqonuniy yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, foydalanish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish) uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash zarurati asoslantirilgan;

shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash lozimligi isbotlangan;

jabrlanuvchining axborot resursini yo'q qilish, o'zgartirish, egallab olish yoki to'sib qo'yishni, shuningdek, jabrlanuvchini sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish bilan qo'rqitishni tovlamachilikning obyektiv belgisi sifatida belgilash lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tovlamachilikning barvaqt oldini olishda Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi normalarining jinoyatlarning oldini olish (preventiv) funksiyalaridan foydalanishni takomillashtirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi;

tovlamachilikka oid statistik ma'lumotlar va sotsiologik so'rov natijalari tahlili asosida ularning kriminologik o'ziga xos xususiyatlari shakllantirildi;

tovlamachilikni sodir etgan shaxslarning kriminologik va jabrlanuvchilarga xos viktimologik tavsifi hamda tasnifi inobatga olinib ularga nisbatan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

tovlamachilikning oldini olish uchun mas'ul subyektlarning o'zaro hamda keng jamoatchilikni jalb etgan holda kompleks amalga oshirishga xizmat qiladigan "Tovlamachilikning oldini olish bo'yicha namunaviy idoraviy chora-tadbirlar dasturi" loyihasi hamda tovlamachilikning oldini olish "obyektlari tizimi" va "subyektlari tizimi" modellari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarini aks ettiruvchi ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar 2017–2024-yillarda respublikamiz sudlarida ko'rilgan 321 ta jinoyat ishlariga oid arxiv materiallari, 234 nafar profilaktika inspektorlari, 212 nafar fuqarolar va turli tashkilotlar (mahalla, bank, sog'liqni saqlash, prokuratura, soliq organlari, ta'lim muassasalari) xodimlari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijalari va qonunni qo'llash amaliyotini tahlil qilish orqali asoslangan. Natijalar qonunni qo'llash amaliyotiga doir statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, tadqiqot ishida foydalanilgan materiallar tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan tovlamachilikning oldini olish sohasiga oid qonun hujjatlari va ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga, tegishli qonun normalarini ilmiy sharhlashga, ushbu faoliyatni, shuningdek, "Kriminologiya", "Viktimologiya", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" va "Jinoyat huquqi" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tovlamachiliklarning oldini olish samara-dorligini oshirish hamda mazkur sohadagi hamkorlikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tovlamachilikning oldini olishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, milliy qadriyatlarga zid bo'lgan ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, oilalarda sog'lom tarbiyaviy muhitni yaratish va otionalarga tarbiya usullarini o'rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ'ibot tadbirlari va treninglar o'tkazishga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori 21-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-iyuldagi 30/1-03-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi tovlamachiliklarning oldini olish tizimining takomillashuviga xizmat qilgan;

shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish huquqbuzarligi mazmunini aniqlashtirishga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risi"dagi O'RQ-726-son qonuni 4-moddasi 3-bandi (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46²-moddasiga kiritilgan o'zgartirish)ni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 17-maydagi 01/q-08-45-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi shaxsga doir ma'lumotlardan g'araz, shu jumladan, tovlamachilik maqsadida foydalanishning oldini olish va mazkur huquqbuzarliklar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashni takomillashtirishga xizmat qilgan;

shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun alohida moddada jinoiy javobgarlik belgilash haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-829-son qonuni 3-moddasi 20-bandi (Jinoyat kodeksining 141³-moddasiga kiritilgan o'zgartirish)ni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 17-maydagi 01/q-08-45-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib tovlamachilik sodir etishining oldini olishni, shuningdek, mazkur qilmish uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashni takomillashtirishga xizmat qilgan;

jabrlanuvchining axborot resursini yo'q qilish, o'zgartirish, egallab olish yoki to'sib qo'yish orqali o'zgan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o'zining mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish kabi holatlarni tovlamachilik sifatida baholash haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-899-son qonuni 1-moddasi 1-bandi (Jinoyat kodeksining 165-moddasiga kiritilgan o'zgartirish)ni shakllantirishda foydalanilgan

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 17-maydagi 01/q-08-45-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi kibertovlamachilikning oldini olishni va mazkur qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik muqarrarligi ta’minlanishini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 5 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya hamda davra suhbatlarida sinovdan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta, jumladan, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta (shundan 2 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, yettita paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tovlamachilik tushunchasiga oid normalarning qiyosiy-huquqiy tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida milliy hamda xorijiy davlatlar qonunchiligidagi tovlamachilikka oid normalarning qiyosiy-huquqiy tahlili bayon etilgan.

Dissertant tadqiqot natijalariga asoslangan holda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 165-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasida (2024-yil 19-yanvardagi O‘RQ-899-son qonuni tahririda) berilgan ta’rif, bugungi kunda sodir etilayotgan tovlamachilikning obyektiv belgilarini o‘zida to‘liq aks ettirmagan degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotchining fikricha, mazkur ta’rif hozirgi vaqtda sodir etilayotgan tovlamachiliklarda jabrlanuvchi bilan birga uning yaqin kishilarining shaxsiga hamda mulkiy va boshqa huquqlariga ham tajovuz qilinayotgan holatlarni qamrab olmagan. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 165-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasiga jabrlanuvchilar bilan bir qatorda uning yaqin kishilari uchun ham sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish, ularni sharmanda qiladigan, obro‘sigacha putur yetkazadigan har qanday ma’lumotlarni tarqatish bilan qo‘rqitib, shuningdek, ularni o‘z mulkini yoki mulkka bo‘lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo‘yishni ham nazarda tutish zarurligi asoslantirilgan.

Dissertant tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlariga oid nazariy qarashlarni o‘rganish hamda qonunchilik normalarni qiyosiy tahlil qilish natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy xulosalarga kelgan:

birinchidan, barcha dinlarda tovlamachilik va firibgarlik og‘ir gunoh sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda ko‘payib borayotgan mazkur jinoiy qilmishlarning barvaqt

oldi olinishini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga ehtiyoj katta;

ikkinchidan, mazkur qilmishlarning bir-biriga o'xshashligi: a) tovlamachilik va firibgarlik iqtisodiyot sohasidagi eng xavfli turlari hisoblangan o'zgarlar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlar turkumiga kiruvchi; b) tarkibi, ya'ni obyekt va subyekt o'xshashligida; v) qilmishning bevosita o'zgarlar mulkini talon-toroj qilishga qaratilganligida namoyon bo'ladi;

uchinchidan, mazkur qilmishlarning bir-biridan farqi: a) tovlamachilik zo'rlik ishlatish va qo'rqitish usullaridan birini yoki bir vaqtning o'zida har ikkalasini ham qo'llagan holda mulkiy manfaat ko'rish yoki shunday manfaat manbaini berishga majbur qilish orqali sodir etiladi; b) firibgarlik aldov yoki ishonchni suiiste'mol qilish usullaridan birini yoki bir vaqtda har ikkisini ham qo'llagan holda mulkni yoki unga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish orqali sodir etiladi;

to'rtinchidan, tovlamachilikni sodir etish usullari turlicha bo'lishiga qaramay faqatgina mulkiy turdagi jinoyat hisoblanadi, lekin, ularni axloqqa qarshi huquqbuzarlik, korrupsiya bilan bog'liq va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yoxud jabrlanuvchining axborot resursini yo'q qilish, o'zgartirish, egallab olish yoki to'sib qo'yish usullarini qo'llab sodir etilishi uning ijtimoiy xavfini oshirmoqda.

Tadqiqotchining fikricha, jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy (ishsizlik), tashkiliy-boshqaruv (subyektlar faoliyati bilan bog'liq) hamda huquqiy ta'minlash (qonunchilikning nomukammalligi) sohalaridagi muammo va kamchiliklar bugungi kunda g'arazli va zo'rvonlik bilan bog'liq jinoyatlarni, shu jumladan, tovlamachilik sodir etilishining hozirgi sharoitda sifat jihatdan o'zgarishiga hamda uni sodir etish shakl va usullarining rang-barang bo'lib murakkablashishiga olib kelmoqda.

Bunday omillarning oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotda ishtirok etgan mutaxassislarning 34 foizi jinoyat, 18 foizi jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish, 11 foizi alohida qonun qabul qilish, 37 foizi esa, tovlamachilikni aniqlash, hujjatlashtirish va ularning barvaqt oldini olish bo'yicha hududiy metodikalar, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini bildirishgan.

Xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligidagi tovlamachilik tushunchasining qiyosiy-huquqiy tahlili natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga xizmat qildi:

birinchidan, barcha davlatlarning jinoyat qonunchiligida tovlamachilik mulkiy turdagi jinoyatlar toifasiga kiritilgan;

ikkinchidan, tovlamachilik jabrlanuvchining mulkiga yoki mulkiy huquqiga tajovuz qilish maqsadini ko'zlaydi;

uchinchidan, tovlamachilik jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish bilan qo'rqitishda namoyon bo'ladigan faol harakat hisoblanadi;

to'rtinchidan, tovlamachilik o'zgan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yadi;

beshinchidan, tovlamachilikda faqat moddiy boyliklargina emas, balki mulkiy maqomdagi hujjatlar, qarz (qarz (bo'yicha tilxat), merosdan voz kechish to'g'risidagi

hujjat, moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnoma, dam olish va davolanish maskanlariga (sanatoriylarga) yo‘llanma va boshqalar ham tajovuz predmeti bo‘lishi mumkin;
oltinchidan, tovlamachilik tamagirlik motivi bilan sodir etiladi;

yettinchidan, tovlamachilikda mulk zo‘rluk ishlatilib tortib olinmaydi, balki mulk egasi tomonidan uni o‘z ixtiyori bilan berishga majbur bo‘ladigan sharoitga solinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tovlamachilikning kriminologik tavsifi”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ushbu jinoyatning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilingan, uni sodir etgan shaxslarga kriminologik va undan jabrlanganlarga esa viktimologik tavsif berilgan, shuningdek, bunday jinoyatlarning sodir etilishini taqozo etuvchi omil (determinant)lar tadqiq etilgan.

Mazkur bobning **“Tovlamachilikning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari tahlili”** deb nomlangan paragrafida 2011 – 2024- yillarda sodir etilgan tovlamachilik jinoyatlarining ko‘rsatkichlari jami jinoyatlar ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, quyidagilar aniqlangan. Tovlamachilikning eng kop sodir etilishi 2014- yilga (504 ta), eng kami 2019- yilga (152 ta) to‘g‘ri kelgan. Jami jinoyatlarda eng yuqori ko‘rsatkich 2024-yilda (132298 ta), eng past ko‘rsatkich esa 2019-yilda (46089 ta) qayd etilgan. Ushbu davrda tovlamachilikning yillar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi 377,7 taga, jami jinoyatchilikda esa, 87122 taga to‘g‘ri kelgan.

Tadqiqotchi 2011 – 2024-yillarda qayd etilgan tovlamachilik, firibgarlik va o‘g‘rilik jinoyatlariga oid statistik ma‘lumotlar qiyosiy tahlili natijasiga asoslangan holda:

birinchidan, ularning dinamikasida bir-biridan farq qiladigan tafovutli tendensiya: 2011 – 2014-yillarda tovlamachilikda o‘shish kuzatilib, 2011-yilga nisbatan 2014-yilda 76,8 foizga, o‘rtacha yillik esa 19,2 foizga oshganligi; 2015 –2019-yillarda tovlamachilikda pasayish kuzatilib, 2015-yilga nisbatan 2019-yilda 64,3 foizga, o‘rtacha yillik esa, 12,8 foizga kamayganligi; 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 2,8 barobarga oshganligi, 2021-yilda esa, oldingi yilga nisbatan 18,3 foizga kamayganligi, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 2,8 foizga o‘shish, 2023 yilda avvalgi yilga nisbatan 31 foizga o‘shish, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 5 foizga o‘shishi kuzatilganligi;

ikkinchidan, umumiy jinoyatchilik tuzilishida tovlamachilik, firibgarlik va o‘g‘rilik jinoyatlarining hissalarini: a) tovlamachilikning o‘rtacha yillik hissasi 0,43 foizni, firibgarlikniki 14,6 foizni, o‘g‘rilikniki esa, 17,6 foizni tashkil qilganligi; b) tovlamachilikka nisbatan firibgarlik 33,7 barobar, o‘g‘rilik jinoyatlari esa, 40,6 barobar ko‘p qayd etilganligi; v) tovlamachilikning hissasi eng past 2011, 2019, 2021 – 2022-yillarda 0,3 foizni, eng yuqori 2020 yilda esa, 0,7 foizni tashkil qilganligi; g) firibgarlikning eng past ko‘rsatkichi 2011-yilda 8,5 foizni, eng yuqorisi 2021 va 2024-yillarda 22,1 foizni tashkil etganligi; d) o‘g‘rilikning eng past ko‘rsatkichi 2019-yilda 11,6 foizni, eng yuqorisi esa, 2024-yilda 36,5 foizni tashkil qilganligi;

uchinchidan, tovlamachilik darajasi eng yuqori ko‘rsatkichi 2014-yilda har 10000 aholiga 0,23 tani, eng past ko‘rsatkichi 2019-yilda 0,06 tani tashkil qilganligi, ularning farqi 3,8 barobarga tengligi, ushbu davrdagi o‘rtacha yillik ko‘rsatkich 0,16 taga to‘g‘ri kelganligi, firibgarlikning eng yuqori ko‘rsatkichi 2021-yilda 9,8 tani, o‘g‘rilikniki esa 7,9 tani tashkil qilganligi, firibgarlik va o‘g‘rilikda eng past ko‘rsatkich 2019-yilda tegishlicha 2,6 va 2,2 tani tashkil qilganligi *tovlamachilikning o‘g‘rilik va firibgarlikka nisbatan latentlik darajasi juda yuqoriligi, ularga qarshi kurash siyosatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatida, shuningdek bu sohaga e’tibor va talabning kuchaytirishida barqarorlikning yetarli emasligi bilan bog‘liq degan xulosaga kelgan.*

Dissertatsiyaning ikkinchi bobidagi **“Tovlamachilik sodir etganlarning kriminologik va undan jabrlanganlarning viktimologik tavsifi”** nomli paragrafida dissertant tovlamachilik sodir etuvchi shaxslarni har tomonlama o‘rganish uchun ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar o‘tkazgan:

1) tovlamachilik bilan shug‘ullanishga moyilligi bor, ayniqsa, xufiyona, shu jumladan, xizmat ko‘rsatish sohasida norasmiy faoliyat olib borayotgan shaxslar va guruhlar ustidan profilaktik kuzatuvlar olib borish;

2) tovlamachilik bilan shug‘ullanayotgan shaxslar va guruhlar ustidan tezkor-qidiruv usullari yordamida doimiy tezkor-profilaktik kuzatuv olib borish;

3) tovlamachilik sodir etgan shaxslar bilan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov harakatlarini olib borish jarayonida, shuningdek, jazoni o‘tash joylarida ishonchli suhbatlar o‘tkazish zarur degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi tovlamachilik bilan shug‘ullanayotgan shaxslarni ular faoliyatiga oid kriminologik va kriminalistik jihatlarni inobatga olgan holda shartli ravishda besh guruhga ajratadi. Xususan:

birinchi guruhga odatda o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish, xususan, o‘g‘rilik, talonchilik, bosqinchilik, shu jumladan, tovlamachilik sodir etishga moyilligi mavjud bo‘lgan shaxslarni;

ikkinchi guruhga fuqarolarga oid shaxsiy yoki oilaviy hayotiga taalluqli ma‘lumotlar, ayniqsa, boshqalardan sir tutilishi talab etiladigan, xususan, odamlarning axloqqa zid xatti-harakatlari, jinsiy hayoti haqidagi ma‘lumotlarni qo‘lga kiritish va oshkor qilish tahdidi bilan tovlamachilik sodir etishga ixtisoslashgan shaxslar yoki guruh a‘zolarini;

uchinchi guruhga turli sohalarda tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi, ayniqsa, noqonuniy yoki amaldagi qonun talablarini qasddan buzgan holda faoliyat olib boruvchi jismoniy va yuridik shaxslarga “norasmiy xizmat ko‘rsatish”, ya‘ni ularni turli xil tekshiruv yoki noqonuniy to‘lovlar talab qiluvchilardan himoya qilishni o‘z zimmasiga olishini bosim va tahdid ostida “tavsiya etish” orqali muayyan miqdordagi to‘lov(stavka)ni undiruvchi shaxslar yoki guruh a‘zolarini (o‘zlarini jinoyat olami vakillari yoki “ko‘cha odamlari” hisoblovchilar);

to‘rtinchi guruhga davlatning vakolatli organlarida mansabdorlik lavozimlarida ishlab, nazorat va tekshiruvni amalga oshiruvchi subyektlarga o‘z ta‘sirini o‘tkaza olish imkoniyatidan foydalangan holda muayyan sohada faoliyat olib borayotgan, ayniqsa, daromad manbai yuqori bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarni turli xil qonuniy va noqonuniy tekshirishlardan himoya qilish (“panoh”, “krisha” bo‘lish), xizmat ko‘rsatishi evaziga olayotgan foydasining muayyan bir hissasini berishni talab qiluvchi shaxslarni;

beshinchi guruhga internet jahon axborot tarmog‘i orqali g‘araz maqsadda “kiber hujum” larni amalga oshirish, shuningdek, “tovlamachi-dastur” ni taqdim etish orqali yirik kompaniyalar, banklar va iqtisodiyot subyektlari kompyuterlarining xavfsizlik tizimini buzish tahdidi ostida muayyan miqdordagi mablag‘larni tamagirlik asosida qo‘lga kirituvchi shaxslarni kiritib, har bir guruhga kiruvchi shaxslarga xos xususiyatlarni ularning jinoiy faoliyatiga oid aniq misollar bilan asoslantirgan.

Tadqiqotchi fikricha, tovlamachilikning barvaqt oldini olish nuqtayi nazaridan uni sodir etgan shaxs bilan jabrlanuvchi o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, viktimologik tadqiqotlarni o‘tkazishni taqozo etadi. Tovlamachilikka oid jinoyat ishlarining 47,5 foizida uni sodir etgan shaxs bilan

jabrlanuvchi o‘zaro notanish bo‘lgan bo‘lsa, 39,7 foizida ular bir- birlarini avvaldan tanigan, 12,8 foizida esa o‘zaro qarindosh bo‘lgan. Tovlamachi bilan jabrlanuvchi notanish bo‘lgan holatlar – Toshkent shahri, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Jizzax viloyatlarida, tanigan holatlar – Toshkent shahri, Farg‘ona, Andijon viloyatlarida, o‘zaro qarindosh bo‘lgan holatlar esa Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida aniqlangan.

Tadqiqotchi viktimologik adabiyotlar tahlili hamda o‘tkazilgan tadqiqot natijalari va maqsadidan kelib chiqqan holda, *birinchidan*, shaxsda tovlamachilik jinoyatidan jabrlanish ehtimolini shakllantirishni taqozo etuvchi omillarni, *ikkinchidan*, uning natijasi sifatida tovlamachilikdan jabrlanishga moyillarni, *uchinchidan*, jabrlangan shaxslarni uyg‘unlikda o‘rganish maqsadga muvofiq degan xulosaga keladi.

Mazkur bobning **“Tovlamachilik sodir etilishini taqozo etuvchi omil (determinant)lar tahlili”** deb nomlangan paragrafida tovlamachiliklarning sodir etilishini taqozo etuvchi sabab va sharoitlar zanjiridagi voqea, hodisa va jarayonlar mavjud bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib quyidagi: a) ijtimoiy-iqtisodiy; b) tashkiliy-boshqaruv; v) axloqiy-ruhiy omillarga ajratgan holda tadqiq etilgan.

Dissertant sudlarda ko‘rib chiqilgan tovlamachilikka oid jinoyat ishlari materiallarini o‘rganish natijasida 56,8 foiz hollarda jabrlanuvchilar xulq-atvoridagi, 43,2 foiz holatda tovlamachilik sodir etgan shaxslarning xulq-atvoridagi g‘ayriijtimoiy axloqiy-ruhiy xususiyatlar jinoyat sodir etilishini taqozo etgan degan xulosaga kelgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tovlamachilikning oldini olishni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan bo‘lib, unda xorijiy davlatlardagi tovlamachilikning oldini olishga oid tajribalar tahlil qilingan va ular asosida mazkur sohada milliy huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Manbalar tahlili asosida tadqiqotchi xorijiy davlatlarda tovlamachilikning oldini olish chora-tadbirlari: a) individual yoki ijtimoiy guruhlar darajasidagi kriminallasuv va viktimallasuvning obyektiv hamda subyektiv omillarini aniqlash hamda bartaraf etish; b) aholining alohida toifalari (*tovlamachilikni sodir etishga va undan jabrlanishga moyil*) o‘rtasida tushuntirish ishlari, huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish; v) davlatning kompensatsiya va zararni qoplash tizimini nazarda tutgan holda tovlamachilikdan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish yo‘nalishlari kabilardan iboratligini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi xorijiy davlatlarda tovlamachilikning oldini olish borasida to‘plangan tajribadan kelib chiqib: a) keng jamoatchilik hamkorligiga; b) huquqiy targ‘ibotning yangicha mexanizmlari joriy etilishiga; v) alohida davlat dasturlariga va hududiy metodikalarga asoslangan holatda kompleks profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi deb qayd etadi.

Dissertant tomonidan tadqiqot natijalariga asoslanib, uning maqsad va vazifalaridan, mamlakatimiz sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatidan, shuningdek, jamiyat ehtiyoji hamda talablaridan kelib chiqib, tovlamachilikning oldini olishni takomillashtirish istiqbollari bir necha yo‘nalishlarga ajratilgan holda ko‘rib chiqilgan.

Birinchi yo‘nalish tovlamachilikning oldini olishning obyektlari va subyektlari tizimi modellarini ishlab chiqish. Tovlamachilikning oldini olishning obyektlari va subyektlari tizimini aniqlashtirish hamda ularning modelini shakllantirish mazkur qilmishlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarini maqsadli va manzilli amalga

oshirish imkonini yaratishga xizmat qiladi. Tovlamachilik, uni sodir etish usullari, shaxslarda mazkur ijtimoiy xavfli qilmishga moyillikni shakllantiruvchi va ularni sodir etishga imkon beruvchi, shuningdek, muayyan guruh shaxslarining esa ushbu jinoyatlar qurboniga aylanishini taqozo etuvchi omillar tahlili asosida tovlamachilikning oldini olish obyektlari va subyektlari tizimining modellari ishlab chiqilgan.

Ikkinchi yo'nalish axloqiy-ma'naviy tarbiyani kuchaytirish. Tovlamachilik sodir etilishida shaxsning axloqsiz turmush tarziga oid ma'lumotlarni turli xil usullar bilan egallash, ulardan g'arazli maqsadlarga erishish uchun foydalanish orqali tovlamachilik sodir etishning yoshlar o'rtasida ko'payib borayotganligi va mazkur qilmish barcha dinlarda "gunohi og'ir qilmish" sifatida e'tirof etilganligini inobatga olgan holda aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda oila, mahalla, ta'lim va diniy muassasalar vakillarini keng jalb etgan holda "axloqsizlikning barvaqt oldini olish" tizimini yaratish taklif etilmoqda. Mazkur tizim jamiyatda axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish, korrupsiya, tovlamachilik va adolatsizlikka qarshi murosasizlikni shakllantirish chora-tadbirlarini maqsadli va manzilli amalga oshirilishini ta'minlashi zarur.

Uchinchi yo'nalish axborot texnologiyalari sohasida huquqiy savodxonlikni oshirish. Tovlamachilik sodir etilishining oldini olishga qaratilgan ogohlantiruv-profilaktik chora-tadbirlari, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslarni, shu jumladan, ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilotlar, tadbirkorlar, davlat organlari, banklarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda turli xil tamagirliklardan himoya qilishga xizmat qiladigan "Diqqat tovlamachi" yoki "To'xta tovlamachi" maxsus dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurligi asoslantirilgan.

Mazkur dasturlar odamlarga tovlamachilarning jinoiy faoliyati, ya'ni jinoiy qilmishni sodir etish usullari, ularni amalga oshirish ketma-ketligi, davomiyligi, ularning ishtirokchilariga oid ma'lumotlar asosida ogohlantiruvchi-profilaktik ta'sir ko'rsatish funksiyasini bajaradi.

To'rtinchi yo'nalish hamkorlik samaradorligini oshirish. Davlat organlari mansabdor shaxslari tomonidan xizmat vazifalarini suiiste'mol qilish yo'li bilan, "jinoyat olami" vakillari tomonidan turli usullar asosida bosim o'tkazish, hatto jabrlanuvchining yaqinlarini o'g'irlash yoki o'g'irlash tahdidi orqali tadbirkorlar va mulkdorlarni, shuningdek, "yashirin iqtisodiyot" sohasida faoliyat olib boruvchilarni hamda ularga tegishli daromad keltiruvchi korxonalar va muassasalarni egallashga qaratilgan jinoiy faoliyatiga chek qo'yish uchun tezkor-qidiruv profilaktikasi chora-tadbirlarini tegishli huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda amalga oshirish mexanizmini yaratish.

Beshinchi yo'nalish ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat olib borishni huquqiy tartibga solish. Bloggerlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va uni qabul qilish zarurligi to'g'risida ilmiy xulosa asoslantirilgan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi, birinchidan, ularning ijtimoiy va huquqiy maqomini aniq belgilab bersa, ikkinchidan, faoliyat olib borish jarayonida vujudga kelayotgan turli nizo va kelishmovchiliklarning, uchinchidan, huquqlarini amalga oshirishda suiiste'molliklar orqali jinoyat, shu jumladan, tovlamachilik sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Oltinchi yo'nalish qonunchilikni takomillashtirish. Bugungi kunda foizga qarz berib "daromad" olish bilan shug'ullanuvchilar soni ko'payib borayotgan va hayotda daromad olish maqsadida foizga qarz berishda uning ishtirokchilari fuqarolik

qonunchiligi talablarini chetlab o'tgan holda bunday faoliyatni amalga oshirishayotganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Jinoyat kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklifi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijasida tovlamachilikning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish hamda bu jinoyatdan jabrlanish ehtimoli (moyilligi)ni shakllantiruvchi va jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni himoya qilish faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi mavjud ziddiyat va bo'shliqni bartaraf etishga oid ilmiy asoslantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda tovlamachilikning oldini olishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ularning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi: a) nazariy bilimlarni boyitishga; b) huquqiy bo'shliq, noaniqlik va ziddiyatlarni bartaraf etishga; d) amaliyot samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi guruhlariga ajratilgan holda taqdim etilmoqda.

I. Tovlamachiliklarning oldini olishga doir nazariy bilimlarni boyitishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar:

1. Tovlamachilikning kriminologik va jinoyat-huquqiy jihatlarini nazarda tutuvchi mualliflik ta'riflari shakllantirildi, shuningdek, "tovlamachilikning oldini olish" tushunchasiga nisbatan zamonaviy yondashildi:

tovlamachilik – insonning mulkiy, jismoniy va ma'naviy manfaatlariga qarshi qaratilgan, jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish, ularni sharmanda qiladigan ma'lumot va uydirmalar tarqatish, axborot resursini yo'q qilish, o'zgartirish, egallab olish yoki to'sib qo'yish yoxud bunday usullarni qo'llash bilan qo'rqitish orqali ularning mulkiy huquqlarini o'zlashtirish maqsadida qasddan g'arazgo'ylik-zo'ravonlik niyatida sodir etiladigan yuqori latentli talon-torojlikdir;

tovlamachilikning oldini olish – jamiyatda axloqsizlik, o'zgalarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini mensimaslik, zo'ravonlik, shafqatsizlik kabi salbiy hislatlar tarqalishiga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish, axloqsizlik va tamagirlikka, bunday qilmishlardan jabrlanishga moyil bo'lgan shaxslarni barvaqt aniqlash, ular bilan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik-profilaktik xususiyatga ega, shuningdek, mazkur jinoiy qilmish sodir etilishini taqozo etuvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, huquqiy va boshqa kompleks chora-tadbirlarni maqsadli hamda tizimli amalga oshirish faoliyatidir.

2. Xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi qiyosiy tahlili natijasida quyidagilar aniqlandi:

a) Argentina, Armaniston, Belarus, Germaniya, Gruzziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Xitoy, Koreya, Moldova, Ozarbayjon, Rossiya, Sloveniya, Tojikiston, Fransiya, Shvetsiya, Estoniya davlatlarining Jinoyat kodekslarida tovlamachilikka berilgan tushunchalar bir-biriga yaqin, shu bilan birga, mazmunan tafovutlar mavjud;

b) tovlamachilik, Armaniston, Qirg'iziston, Ozarbayjonda iqtisodiyot sohasidagi, Belarusda mulkka va iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tartibiga qarshi, Rossiya, Tojikiston va Gruziyada iqtisodiy sohadagi mulkiy, Qozog'iston, Moldova, Sloveniya,

Estoniyada mulkka qarshi, Janubiy Koreyada firibgarlik va tovlamachilik bilan bog'liq, Germaniyada esa bosqinchilik va tovlamachilik bilan bog'liq jinoyatlar guruhi(toifasi)ga kiritilgan;

d) Armaniston, Belarus, Gruzuya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Ozarbayjon, Rossiya, Estoniyada tovlamachilik uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir, Sloveniyada uncha og'ir bo'lmagan, og'ir, Xitoyda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va og'ir, Koreyada og'ir, Tojikiston, Fransiyada og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlar sirasiga kiritilgan;

e) qonunchilikda tovlamachilik uchun belgilangan jazoning miqdori va muddatlari bo'yicha farqlar turlicha bo'lib, *ayrim davlatlarda jazolarning muddati chegaralanmagan (masalan, Fransiyada 30 yil va umrbod qamoq).*

3. Tovlamachilikning o'ziga xos kriminologik xususiyatlarini aniqlash ularning:

a) miqdor va sifat ko'rsatkichlari bo'lgan ahvoli, dinamikasi, tuzilishi, darajasi, geografiyasini; b) tovlamachilikni sodir etgan shaxslar va ulardan jabrlangan shaxslarga oid kriminologik va viktimologik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlari; d) tovlamachiliklar sodir etilishini va undan jabrlanishni taqozo etuvchi omillarni o'zaro uyg'unlikda tizimli tadqiq etishni taqozo etadi.

4. Tovlamachilikning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida muayyan darajada tafovutli o'zgarishlarga xos quyidagi kriminologik xususiyatlar aniqlandi:

a) tovlamachilikning umumiy jinoyatchilikdagi hissasi oxirgi 14 yilda o'rtacha 0,43 foizni, yo'nalishi (dinamikasi)da esa 2011–2014-yillarda o'rtacha yillik o'sish 19,2 foizni, 2015–2019-yillarda o'rtacha yillik pasayish 12,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 2,8 barobarga oshganligi, 2021-yilda esa oldingi yilga nisbatan 18,3 foizga kamayganligi, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 2,8 foizga o'sish, 2023-yilda avvalgi yilga nisbatan esa 31 foizga o'sish, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 5 foizga o'sganligi qayd etilgan;

